



ISSN (E): 2181-4570

HARAKAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA HAYDOVCHILAR HUQUQIY MADANIYATINING O'RNI

Nazarov A.A., Usmonova M.N., Raxmat B.A.

Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya

Maqolada haydovchilarning huquqiy madaniyatini harakat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Haydovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish yo'llari keltirilgan. Haydovchilar huquqiy madaniyatini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilingan.

Annotation

The role and importance of drivers' legal culture in ensuring traffic safety is analyzed in the article. Ways to improve the legal culture of drivers are given. Factors affecting the improvement of the legal culture of drivers are analyzed.

Kalit so'zlar

Haydovchi, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, avtomobil yo'llari, tirbandlik, ishonchlik, yo'l harakati, transport vositasi, ma'muriy javobgarlik, chorraha.

Keywords

Driver, legal culture, legal awareness, highways, traffic, reliability, traffic, vehicle, administrative responsibility, intersection.

Yirik megopolislarda transport vositalarining sonini tobaro ortib borishi turli darajadagi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda Toshkent shahridagi magistral yo'l-ko'cha tarmoqlarida "tirbandlik"ni vujudga kelishi oddiy holatga aylanib qolmoqda. Ayrim chorrahalarda transport vositalari svetoforning 4-5 va undan ko'p sikllarini kutib turishlari natijasida ko'plab vaqtlarini yo'qotmoqdalar. Chorrahalarda transport vositalaridan ajralib chiqayotgan gazlardan ko'plab fuqarolar jabr ko'rmoqdalar.

Yo'l harakati ishtirokchilarining harakat davomida vujudga keladigan munosabatlar ularning o'zaro ijtimoiy rivojlanish maxsuli sifatida namoyon bo'ladigan ma'lum tizim bilan xarakterlanadi.

Yo'l harakati qatnashchilari yo'llarda harakatlanish jarayonida muntazam ravishda o'zaro munosabatlarga kirishib boradilar. Ayrim hollarda bunday munosabatlarda Davlat yo'l harakati xavfsizligi xodimlari ham ishtirok etadilar. Afsuski, bunday munosabatlar hamisha ham yo'l harakati ishtirokchilari uchun ijobiy natija





bermaydi. Yo'l-patrul xizmati xodimi tomonidan yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy jazo choralarini qo'llanishini ko'pgina yo'l harakati qoidalarini buzuvchilari to'g'ri talqin qilmaydilar. Buning sababi yo'llarda harakatlanish qoidalariga rioya etilishi ustidan qat'iy nazorat olib borilmasa, yo'l-transport xodisalari sodir bo'lish ehtimolligini yanada oshishi mumkinligini ular to'g'ri tushinib yetmaslikdandir. Ayniqsa, bugungi kunda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Avtomobil yo'llarida transport vositalarining sonini ortib borishi natijasida avtomobillarni boshqarish ham murakkablashib bormoqda. Bugungi kunda magistral yo'llarda avtomobilni boshqarish jarayonida juda ko'plab murakkab vaziyatlarga duch kelinadi. Bunday vaziyatlarni bartaraf etish uchun esa, haydovchidan anchagina mahorat talab etiladi, ammo haydovchida bunday mahorat yetishmasa nima bo'ladi? O'z- o'zidan ravshanki yo'llarda avariya holati vujudga keladi. Bunday holat agar yo'l harakatining boshqa ishtirokchilar tomonidan o'z vaqtida bartaraf etilmasa yo'l-transport xodisasi vujudga kelishi muqarrar bo'ladi.

Yo'l harakati xavfsizligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga tegishli o'zgartirishlar kiritib, yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi. Shu bilan bir qatorda 2013 yilning 10 aprelida "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Bu me'yoriy hujjatlar yo'l harakati xavfsizligini oshirish, yo'llarda harakat ishtirokchilarini xavf-xatarsiz harakatlanishlarini ta'minlashga qaratilgandir.

Bundan tashqari, bugungi kunda yo'l harakatini nazorat qilish jarayoniga axborot kommunikatsion texnologiyalar keng miqiyosda joriy etilib borilmoqda. Endilikda, yo'l harakati qoidalarini buzilish faktlari maxsus kameralar orqali hisobga olinadi va boshqaruv markaziga yuboriladi. U yerda bu ma'lumotlar qayta ishlanib, qoidabuzarning adresiga yo'l harakati qoidasini buzganligi uchun to'lanadigan jarima miqdori qayd etilgan xabarnoma yuboriladi. Belgilangan muddatda jarima to'lanmasa, unga yana foyiz qo'shib boradi. Bu yo'llarimizdagi transport vositalarining harakatlanish xavfsizligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish orqali yo'llarimizda xavfsiz harakatlanishni ta'minlash qiyin. Buning sababi shundan iboratki, avtomobil yo'lining barcha joylariga kuzatuv kameralarini o'rnatib bo'lmaydi,






shuningdek yo‘l-patrul xizmati xodimlari ham yo‘l harakatining barcha jarayonlarini bir vaqtning o‘zida kuzatib turish imkoniga ega emaslar. Shu boisdan yo‘l harakati xavfsizligini yuqori darajada ta‘minlash uchun yo‘l harakatining har bir ishtirokchisining huquqiy madaniyatini oshirish zarur. Buning uchun yo‘l harakatining har bir ishtirokchisi yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash unga bevosita bog‘liq ekanligini xis qilishi, yo‘l harakati qoidalarini buzishi orqali u harakatning boshqa ishtirokchilariga xavf tug‘dirayotganligini his qilishi, yo‘llarda harakatlanish jarayoniga ongli yondoshishi lozim.

Yo‘l harakati qatnashchilarining huquqiy madaniyatini oshirish uchun keng qamrovli amaliy ishlarni olib borish lozim. Dastavval bu soha uchun mus‘ul bo‘lgan mutaxassislarining bu sohadagi bilim darajasini yanada oshirish kerak bo‘ladi. Bugungi kunda mutaxassislar va haydovchilarni tayyorlash o‘quv dasturlarida ham bu masalaga jiddiy e‘tibor qaratilmagan. Shu sababdan, yo‘l harakati qatnashchilarining huquqiy madaniyatini oshirish uchun dastavval ularning huquqiy savodxonliklarini oshirish talab etiladi. Buning uchun yo‘l harakatining har bir ishtirokchisini yoshligidan boshlab huquqiy savodxonligini shakllantirib borish lozim.

Adabiyotlar:

1. Ilyuxin F. V. Dorojnaya etika. -.M: Transport, 1988-79 s.
2. Lukyanov V. V. Bezopasnost dorojnogo dvijeniya. – M. Transport, 2002 – 262 s.
3. Usmanova M.N., Turgunboev T.T., Madaminov I.Q. Yo‘l-transport hodisalarida yevroprotokolni qo‘llash. Journal of new century innovations. -4, 2023-yil.
4. Usmanova M.N., Raxmat B.A., Isaxanov U.I. Piyodalarni bosib ketish hodisalari ekspertizasi umumiy uslubiyati. Vol. 26 No. 3 (2023): Journal of new century innovations | www.newjournal.org | Volume-26 | Issue-3. -5, 2023-yil.
5. Usmanova M.N., Ismailova D.Sh. Yo‘l harakatini tashkil etish yo‘nalishini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ob‘ektiv zaruriyati. Development and innovation scientific online journal. -4, 2022-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7294909>
6. Integratsiya vysshego uchebnogo zavedeniya i predpriyatiya pri podgotovki specialistov po bezopasnosti dvijeniya





7. Usmanova, M. N. (2020). Podxod k resheniyu problem po obespecheniyu bezopasnosti dorozhnogo dvizheniya. [Http://elib.bsut.by/bitstream/handle/123456789](http://elib.bsut.by/bitstream/handle/123456789)
8. Usmanova, M. N., & Yuldoshev, D. F. U. (2020). Puti povysheniya bezopasnosti dorozhnogo dvizheniya. Problemy nauki, (2 (50)).
9. Usmanova M.N. (2022). [Integratsiya vysshego uchebnogo zavedeniya i predpriyatiya pri podgotovke specialistov po bezopasnosti dvizheniya](#). Ekonomika i sotsium 1-2 (92) 276-280.
10. Usmanova M.N., Raxmat B.A. (2022). [Haydovchilarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish](#). Journal of new century innovations 15 (3) 148-153.
11. Hakimov Sh.K., Usmanova M.N., Rajapova S.S. (2022). [Sovremennye informatsionnye texnologii dlya povysheniya effektivnosti funkcionirovaniya obshchestvennogo transporta](#). Ekonomika i sotsium 9 (100) 705-714
12. Inatovich, A. B., & Aripovich, N. A. (2018). Ways quality increasing of exploitation of city bus capacity and traffic. European science review, (5-6), 374-376.
13. Nazarov, A. A. (2020). Organizatsiya gorodskogo zakaza na perevozke passajirov v Uzbekistane. «Aktualnye voprosy sovershenstvovaniya texnicheskoj ekspluatatsii mobilnoy texniki» (pp. 236-240).
12. A.Nazarov, A.Ustabaev, A.Nazarov Method of determination of public passenger transport interval for "critical situations" Har. Edu.a.sci.rev. 0362-8027 Vol.1. Issue 1 Pages 157-164. 10.5281/zenodo.5795576
13. A.Nazarov, A.Ustabaev, A.Nazarov Selection of rational order of buses in traffic routes Har. Edu.a.sci.rev. 0362-8027 Vol.2. Issue 1 Pages 14-19. 10.5281/zenodo.5908837
14. Shavkat Alimukhamedov, Anvar Nazarov, Akmal Nazarov, Abdulla Ustabaev Estimation of the interval of movement of public passenger transport in the direction. Cite as: AIP Conference Proceedings 2432, 030055 (2022); <https://doi.org/10.1063/5.0090848> Published Online: 16 June 2022.

